

**XOLESTERIN ALKANOATLARINING BA'ZI GOMOLOGLARI SUYUQ
KRISTALL XOSSALARIGA VODOROD BOG'LANISHNING
TA'SIRINI O'RGANISH**

Mamatkulov Bahodir Xasanovich

Fizika kafedrasi katta o'qituvchisi,

Jizzax Politexnika Instituti, O'zbekiston

Shermuxammedov Abdulatif Abdushukir o'g'li

Fizika kafedrasi assistenti,

Jizzax Politexnika Instituti, O'zbekiston

Mamatkulova Gulnoza Narboyevna

Fizika kafedrasi assistenti,

Jizzax Politexnika Instituti, O'zbekiston

Akramova Madinabonu Akmal qizi

Talaba

Jizzax Politexnika Instituti, O'zbekiston

Annotatsiya: ushbu maqolada xolesterin alkanoatlarining ba'zi gomologlari suyuq kristall xossalari vodorod bog'lanishning ta'sirini o'rganish usullari va amaliy ahamiyati to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: suyuq kristall, mezomorf, izotrop suyuqlik, MOPAC dasturi, xolesterin.

Xolesterin alkanoatlari (XA) xolesterik suyuq kristallarning eng muhim vakillaridan biri bo'lib, ular amalda keng qo'llaniladi va muhim biologik obyektlardan biri sanaladi. Lekin hozirgacha ularning molekulalararo o'zaro ta'sirlari bilan mezomorf xossalari orasidagi bog'lanish o'rnatilmagan. Ushbu ishda bu masala XA gomologik qatorining birinchi to'rtta a'zosi – 1-4XA misolida qaralgan.

1-2XA izotrop suyuqlik holatidan Sovutilganda paydo bo'ladigan monotrop xolesterik suyuq kristall fazaga, 3-4XA enantiotrop xolesterik suyuq kristall fazaga ega [1]. 1-4XA larning bunday mezomorf xossalari ko'p jihatdan molekulalararo o'zaro ta'sirlar bilan aniqlanishini taxmin qilish mumkin. Infragizil (IQ) spektroskopiya usuli bilan o'tkazilgan tajribalardan 1XA da molekulalararo vodorod bog'lanishlar mavjudligi haqida xulosalar chiqarilgan edi [2].

1-4XA larning molekulyar strukturasi va molekulalararo o'zaro ta'sirlariga aniqlik kiritish uchun ularning bitta va ikkita molekulasing strukturalari, hosil bo'lish energiyalari, dipol momentlari va normal tebranishlari kvantoximiyaviy usul bilan hisoblandi. 1-4XA molekulalari juda ko'p atomlardan tuzilgan murakkab molekula bo'lgani uchun kvantoximiyaviy hisoblashlarning yarim empirik usuli tanlandi. Hisoblashlar MOPAC dasturlar paketi yordamida AM1 usuli bilan vakuumdagi izolyasiyalangan molekulalar uchun o'tkazildi.

Hisoblashlar avvalo dimer hosil bo'lishi energiyada 1 va 2XA uchun mos holda 6 va 10 kkal/mol miqdorda yutuq berishini, 3 va 4XA da esa yutuq bermasligini, aksincha yutqizish berishini ko'rsatadi. 1-2XA dagi yutuq energiya dimerdagи ikkita vodorod bog'lanishga to'g'ri keladi, shuning uchun bitta vodorod bog'lanish energiyasi 1 va 2XA uchun mos ravishda 3 va 5 kkal/mol ga teng ekanligini topish mumkin. Bu 1XA uchun tajribada [2] topilgan 2,9 kkal/mol ga mos tushadi.

1-2XA dimerlarida C=O bog' uzunligi bir oz oshadi. Bu esa bog'lanish kuch doimiysining kamayishiga olib keladi. Shuning uchun C=O valent tebranish chastotasi monomernikiga qaraganda past chastotalar tomonga siljishi kerak. Hisoblash ham, tajriba ham shu natijani beradi. 3-4XA larning bitta va ikki molekulasi uchun hisoblangan C=O bog' uzunliklari ham, C=O valent tebranish chastotalari ham bir-biridan deyarli farq qilmaydi.

Shunday qilib, IQ spektroskopiya va kvantoximiyaviy hisoblash natijalari 1- 2XA larda molekulalararo vodorod bog'lanishlar mavjudligini, 3-4XA larda esa bunday bog'lanishlar



Lobachevsky
University



mavjud emasligini ko'rsatadi. Bunga XA efir radikalining uzunligi oshishi bilan C=O guruhning elektron-donor qobiliyatining pasayishi va sterik omillar sabab bo'lishi mumkin.

1-2XAlardagi molekulalararo vodorod bog'lanishlar molekulalararo o'zaro ta'sir kuchlarining oshishiga, bu esa o'z navbatida ularning erish temperaturasining oshishiga olib keladi. 1-2XAlarning qizdirilganda mezofaza hosil qilmasdan birdan izotrop suyuqlikka o'tishini bu erish temperaturasi ularning mezomorf xususiyatini namoyon qilishi mumkin bo'lgan temperaturalar sohasidan yo'qorida yotishi bilan tushuntirish mumkin. 3-4XAlarda molekulalararo vodorod bog'lanishlar mavjud bo'limgani uchun ularda enantiotrop suyuq kristall faza kuzatiladi.

ADABIYOT

1. Курик М.В., Руденко А.А., Тищенко В.Г. Фазовые переходы гомологического ряда н-алкоатов холестерина // Ж. физ. хим. 1980. Т. 54, № 1. С. 79-84.
2. Yakubov A.A. Majidov X., Kudratova B. Xolesterilformiatdagi molekulalararo o'zaro ta'sirlarni infraqizil spektroskopiya usuli bilan o'rganish // Замонавий физиканинг долзарб муммолари: Республ. илмий-амалий конф. (Бухоро, 30.11- 01.12.2012) материаллари тўплами. Бухоро, 2012. Б.44-46.



Lobachevsky
UNIVERSITY



Новосибирский
государственный
университет
настоящая наука

